

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

7/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ S/7 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Umurqulov Kamoliddin*

O'ZBEK XALQINING OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI ..... 9-12

*Muhamedov Asror*

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR ..... 13-22

*Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna*

SOVET DAVRIDA KITOB TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA

AMALIYOTLARI ..... 23-30

*Сабитова Коринна Сабировна*

ШКОЛЬНОЕ И СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В  
УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ ..... 31-37

*Vaxabov Azizjon Xamidovich*

USMONIYLAR SALTANATI VA O'RTA OSIYO XONLIKALARINING O'ZARO DIPLOMATIK HAMDA  
ELCHILIK ALOQALARI ..... 38-44

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich*

MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH  
MASALALARI ..... 45-51

*Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li, Xurramova Zarina Xolboevna*

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA TEXNIK SALOHIYATDAN FOYDALANISHNING  
IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI ..... 52-57

*Самадов Салоҳиддин Исматович*

ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ ..... 58-66

*Хуррамов Азамат Файзуллаевич*

ИНСОН КАПИТАЛИНИ ЖАРАЁН-НАТИЖА ТАМОЙИЛИ АСОСИДА ТАҲЛИЛИ ..... 67-74

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Sharipov Abdukhakimjon Ziyoitdinovich*

YANGI O'ZBEKİSTON JAMIYATI TARAQQIYOTI IDEOSFERASIDAGI MA'NAVİY O'ZGARİSHLAR  
DİNAMİKASI ..... 75-80

*Mustafaev Alimardon Alijonovich*

THE MAIN VECTORS OF THE EVOLUTION OF COMPARATIVE PHILOSOPHY IN THE CONTEXT  
OF CONTEMPORARY CIVILIZATIONAL DEVELOPMENT ..... 81-89

*Mamasaliev Mirzoulug' Mirsaidovich*

"G'ARB MADANIYATIDA SABR-TOQAT KONSEPSIYASINING O'ZGARISHI" ..... 90-95

*Shadmanov Qurbon*

FRENСIS BEKON INDUKTIV USULI VA TA'LIM, TARBIYA VA O'Z-O'ZINI TARBIYALASH  
G'OYALARI ..... 96-101

*Usmonov Farkhod Lapasovich*

PHILOSOPHICAL ANALYSIS FREEDOM OF INFORMATION ..... 102-109

*Atakulov Mavlonbek Saitkulovich*YOSHLARNI SOG'LOM MA'NAVIY MUHIT ASOSIDA TARBIYALASHDA  
FUQAROLIK MAS'ULIYATI O'RNI ..... 110-115**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Amanov Abdijabbor Sattarovich*

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALAR TAHLILI ..... 116-121

*Xudoynazarova O'g'lonoj Allamurodovna*

DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI ..... 122-125

*Hayitova Shohida Erkin qizi*KONSEPT TUSHUNCHASINING TALQINI VA KONSEPTGA OID TADQIQOTLAR  
TASNIFI ..... 126-132*Qodirova Mukaddas Tog'ayevna*

TILSHUNOSLIKDA BIZNES DISKURS: TADQIQ, TASNIF VA TAHLIL ..... 133-138

*Aripova Aziza Xasanovna*

NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI MASALALARINING TARIXIY TAKOMILI ..... 139-143

*Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna*QARLUQ SHEVALARIDA TABU VA EVFEMIZMLAR QO'LLANILISHI YUZASIDAN  
MULOHAZALAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA) ..... 144-148*Axmedova Aziza Komilovna*

PSIXIATRIK BADIY TAHLIL ASOSLARI ..... 149-153

*Zokirova Шахзода Нодиржон қизи*

ТЕЛЕВИЗИОН НУТҚНИНГ РИТОРИК АСПЕКТИ ..... 154-158

*Yusupaliyeva Fazilat Yusupaliyevna*

METHODS IN TEACHING ENGLISH AND THEIR IMPORTANCE ..... 159-163

*Fayzullayeva Dilfuzaxon G'ulomjon qizi*

ADIB QALBIDAN: QAHRAMON RUHIYATIDA YOZUVCHINING IZI ..... 164-169

*Negmatova Mumtozbegim*

UZBEK TERMINOLOGY FOR BANKING SECTOR ..... 170-174

*Omondavlatova Latofat Ne'matulla qizi*O'TKIR HOSHIMOVNING "DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN  
LINGVOMADANIY BIRLIKLER TAHLILI ..... 175-178**12.00.00 – YURIDIK FANLAR***Ismaylov Raxat Aminbayevich*NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY  
MASALALARI ..... 179-183*Сеитниязов Камарбек Параҳатовиҷ*ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС  
ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 184-191

Нуруллаев Шохрух Шухратуллаевич  
ҚУРИЛИШДА АТРОФ-МУҲИТНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУҲОФАЗАСИ: ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ВА  
НАЗОРАТИ ..... 192-198

*Hamdamov Shahzod Maqsud o'g'li*  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TARAQQIYOTINING  
HUQUQIY ASOSLARI ..... 199-210

Шокиров Ойбек Азизжон ўғли  
ҚОНУНИЙЛИК НАЗАРИЙ ТУШУНЧАСИ ВА УНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ  
ОРГАНЛАРИ ҚАРОРЛАРИДА ТАЪМИНЛАШНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ  
АСОСЛАРИ ..... 211-218

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Bozorova Muslima Qodirovna, Istamova Dilnoza Norboyevna*  
RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYAT UCHUN KO'R  
BOSQICHLI TAYYORLASH ASOSLARI ..... 219-222

*Rabbimova Nodira Tashtemirovna*  
FROM SCALPEL TO BLACKBOARD: HOW MEDICAL TRAINING IS REVOLUTIONIZING  
PEDAGOGICAL APPROACHES ..... 223-227

*Сайдова Камола Усканбаевна*  
КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ В ВОСТОЧНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ  
МЫСЛИ ..... 228-233

*Худойназарова Дилрабо Абдурашидовна*  
БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИ МАҶНАВИЙ ТАРБИЯ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШНИНГ  
ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ ..... 234-239

*Гаффаров Азизжон Муҳаммадсаидович*  
МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ: МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ ..... 240-245

*Buronova Iroda*  
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARIDA MEDIAKOMPITENTLIKNI  
RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI ..... 246-250

*Matyakubova Feruza Egamovna*  
ANATOMY OF LEARNING: BRIDGING THE GAP BETWEEN MEDICINE AND  
MODERN EDUCATION ..... 251-254

**Received:** 10 September 2024

**Accepted:** 15 September 2024

**Published:** 25 September 2024

*Article / Original Paper*

## **LEGAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF THE MINISTRY OF JUSTICE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**Hamdamov Shahzod Maqsud o'g'li**

Doctoral student of the Institute of State and Law of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abstract.** This article examines the legal status, activities, purpose and objectives of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, as well as the stages of its development from the standpoint of a scientific approach. At the same time, in the system of the Ministry of Justice, issues of improving the quality of public services, improving the sphere of intellectual property protection and issues of improving legal propaganda were analyzed. The changes that have occurred in the system in recent years have been subjected to scientific and theoretical analysis. In addition, a theoretical and legal analysis of regulatory legal documents was carried out, which are the legal basis for the development and improvement of the activities of the ministry.

**Key words:** Justice, public services, state bodies, intellectual property, normative legal act, norm creativity, ministry.

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TARAQQIYOTINING HUQUQIY ASOSLARI**

**Hamdamov Shahzod Maqsud o'g'li**

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining huquqiy maqomi, faoliyati, maqsad va vazifalari hamda rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan o'r ganilgan. Shu bilan birga, Adliya vazirligi tizimida davlat xizmatlari sifatini oshirish, intellektual mulk sohasini va huquqiy targ'ibot ishlarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. So'nggi yillarda tizimda sodir bo'lgan o'zgarishlar ilmiy-nazariy o'r ganilgan. Bundan tashqari, vazirlik faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishda huquqiy asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar nazariy-huquqiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Adliya, davlat xizmatlari, davlat organlari, intellektual mulk, normativ-huquqiy hujjat, norma ijodkorligi, vazirlik

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI7Y2024N30>

Adliya vazirligi norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatdaadolat, erkinlik hamda tenglikni ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

So'nggi yillarda Adliya vazirligi tomonidan yurtimizda huquq tizimini takomillashtirish, uni shaffof, samarali va barcha fuqarolar uchun ochiq bo'lishini ta'minlash maqsadida samarali ishlar olib borilmoqda. Bu jarayon huquqiy targ'ibot, huquqiy ta'lim va malaka oshirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun yuridik xizmatlardan foydalanish

imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan keng ko'lamlı harakatlar, dastur va loyihalarda o'z ifodasini topmoqda.

Adliya vazirligi faoliyatiga nazar tashlashdan oldin, Adliya so'zining lug'aviy ma'nosi, mazmuni va mohiyatiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan, "adliya", "adliya organlari" atamalari uzoq tarixiy o'tmishga ega bo'lib, uni har tomonlama o'rganish bugungi kunda respublikamizda soha rivojlanishining asosiy qonuniyatları va tarixiy shart-sharoitlarini imkon qadar ochib berishga xizmat qiladi. "Adliya" so'zining kelib chiqishiga e'tibor qaratsak, ushbu termin shu kunga qadar yuridik, tarixiy va falsafiy lug'atlarda ko'plab ta'riflar berilganligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, ko'plab huquqshunos, tarixchi va faylasuf olimlar ushbu tushunchaga turlicha izohlar bildirishgan. Ushbu atama turli tillarda turli ma'nolarni anglatishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Jumladan, Huquqshunos olim H. Rahmonqulov tahriri ostida chop etilgan "Yuridik atamalar qomusiy lug'ati"da adliya so'zi arabcha "adala" – odillik so'zidan olinganligi qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra, "adliya" sud muassasalari va ularning odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha faoliyati majmuasini qamrab oluvchi atama deb ko'rsatilgan [1; 20-b.]. "O'zbek tilining izohli lug'ati" [2; 40-b.] va "Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati" kitoblarida ham adliya so'zi sudlov muassasalari tizimi, sud idoralari faoliyati deb, e'tirof etilgan [3; 9-b.]. "O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi"da esa, "adliya" atamasiga kengroq ta'rif berilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, mazkur eksiklopediyada "adliya" – arabcha adl – adolat, to'g'rilik, haqqoniylilik, odillik, xolislik; lotin tilida "justitia", jus – huquq so'zidan; ingliz tilida esa "justice" so'zlaridan olingan bo'lib, milliy sud tizimini tashkil etuvchi organlar majmuini, ularning odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha faoliyatini, shuningdek, sud idorasini anglatadigan tushuncha sifatida e'tirof etilgan. Sud ish yurituvining turi va sohasiga qarab jinoyat, fuqarolik, ma'muriy, konstitutsiyaviy, xalqaro, harbiy, elektoral, yuvenal adliya hamda Adliyaning boshqa turlari farqlanadi" [4; 13-b.], deb ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, Barixin muallifligidagi "Большая юридическая энциклопедия"da adliya so'zi lotincha "justitia" – adolat so'zidan olinganligi qayd etilgan bo'lib, sud institutlarining butun majmui, ularning odil sudlovni amalga oshirishdagi faoliyati va boshqalarni bildiruvchi atama deb e'tirof etilgan [5; 951-c.]. Mazkur yuridik ensiklopediyaga ko'ra, Adliya vazirligi – markaziy adliya sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlaydigan federal ijroiya organi [5; 451-452-c.], deb ta'riflangan. O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida ham Adliya vazirligi ijro hokimiyati tarkibidagi organ sifatida o'z ifodasini topgan. Jumladan, 2018-yilning 13-aprelida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3666-sonli Qarorida Adliya vazirligining huquqiy maqomi, faoliyati, maqsad va vazifalari belgilangan.

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib, Adliya organlari davlat boshqaruvi organi bo'lib, jamiyatda adolat, odillik, qonun ustuvorligini ta'minlaydigan ijro etuvchi hokimiyat tarkibiga kiruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi.

Adliya vazirligining huquqiy maqomi, faoliyati, maqsad va vazifalari, uning davlat hokimiyati tizimidagi o'rni normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan. Adliya vazirligi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Adliya vazirligi ijro hokimiyati tarkibidagi organlardan biri bo'lib, adliya sohasida boshqaruvni amalga oshiradi hamda ushbu sohadagi ijroiya hokimiyati organlari olib boradigan faoliyatni muvoqqlashtiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Adliya organlari va muassasalari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildir. Adliya organlari faoliyatiga O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri rahbarlik qiladi. Adliya vaziri

nomzodini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ma'qullaganidan so'ng O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadigan va lavozimdan ozod etiladi. Adliya vaziri vazirlikka yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi, o'zining o'rnbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, vazirlik faoliyati doirasida vazirlikka qarashli organlar ishiga rahbarlik qilishi uchun ularning javobgarlik darajasini belgilaydi. Shu bilan birga, Adliya vaziri o'z maqomiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi a'zosi hisoblanadi [6].

Adliya vazirligi o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni samarali hal etish maqsadida tuzilgan keng qamrovli tizimga ega bo'lib, ularning huquqiy maqomi tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan. Vazirlik tizimiga vazirlikning markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlari, yuridik xizmat ko'rsatish markazlari, davlat xizmatlari markazlari, FXDY organlari, X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi, "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi" davlat muassasasi, "Adliya organlari va muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" davlat muassasasi, "Davlat xizmatlarini rivojlantirish markazi" davlat muassasasi, "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi, davlat notarial idoralari va arxivlari, Yuristlar malakasini oshirish markazi, Toshkent davlat yuridik universiteti, akademik litsey hamda yuridik texnikumlar kiradi. Vazirlik davlat gerbi tushirilgan muhrga, blankalarga, mustaqil balansga, shaxsiy hisobvaraqlarga, bank hisobvaraqlarga va chet el valyutasidagi hisobvaraqlarga ega hamda o'z nomiga ega bo'lgan yuridik shaxs hisoblanadi [6].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Adliya vazirligi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror, farmon va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlariga, shuningdek, o'zining nizomiga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Adliya vazirligi faoliyatining asosiy maqsadi zamonaviy huquqiy tizimni yaratish, huquqiy davlatning ilg'or standartlari va tamoyillarini joriy etish, davlat boshqaruvining samarali modeliga o'tishni huquqiy ta'minlashdan iboratdir. Shu bilan bir qatorda, Adliya vazirligi o'z faoliyatida yagona davlat huquqiy siyosatini shakllantirishni, shu jumladan, norma ijodkorligi faoliyatini sifatli tashkil etish, izchil va bir xil huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ta'minlash va uni kompleks tahlil qilish, ma'muriy tartib taomillar hamda davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, yangi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqish, ularni rivojlantirish va takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolarga malakali yuridik yordam ko'rsatish borasida adliya organlari va muassasalarini faoliyatini yanada rivojlantirish, sud ekspertizasi sifatini izchil yaxshilash kabi ustuvor vazifalarni amalgalash oshiradi [7].

Bundan tashqari, Adliya vazirligi nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatga olish, nazorat qilish va ularning davlat qonunchiligi hamda normativ-huquqiy hujjatlariga rioxha etishini ta'minlaydi. Xususan, aholiga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi notariat, advokatura va boshqa tuzilmalar tizimining samarali ishlashini, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari huquqiy himoya qilinishini ta'minlash Adliya vazirligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda adliya organlarini "Odilona qonunlarni qabul

qilish, jamiyatda qonunga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir” degan konseptual g’oyani hayotga tatbiq etishga qaratilgan yagona davlat huquqiy siyosatini amalgalashirishni ta’minlaydigan professional xizmatga aylantirish adliya organlari faoliyatining ustuvor yo’nalishlaridan biri etib belgilangan. Bugungi kunda vazirlilikka davlat xizmatlarini ko’rsatish sohasida, jumladan, tegishli axborot-texnologiyalari tizimlari, resurslar va ma’lumotlar bazalarini joriy etish bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish hamda samaradorligini baholash kabi vazifalar ham yuklatilgan [8].

O’zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan tashkil etilgan Adliya vazirligi muayyan rivojlanish bosqichlarini bosib o’tdi. Chunonchi, 1992-yil 8-yanvarda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish to’g’risida”gi PF-314-sonli tarixiy Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonga binoan, mustaqil O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga asos solindi, ya’ni O’zbekiston SSRning ittifoq-respublika Adliya vazirligi O’zbekiston Respublikasining Adliya vazirligiga aylantirildi. Adliya vazirligi huquqiy siyosat va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalgalashirish uchun mas’ul bo’lgan markaziy organ sifatida tashkil etildi. Bundan tashqari, mazkur Farmonda vazirlikning huquqiy maqomi va vazifalari ham belgilandi [9]. Bu Farmon asosida 1992-yilning 12-noyabrdagi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish masalalari to’g’risida”gi 523-son Qaror bilan O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyati tartibga solindi va vazirlikning markaziy apparat tarkibi hamda yangi Nizomi qabul qilindi.

Adliya vazirligining tashkiliy shakllarini rivojlanishini sifat jihatdan yangi darajada olib borilganda, uning miqdor darajasiga ham e’tibor berildi. Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 12-noyabrdagi qaroriga muvofiq Adliya vazirligi tarkibida quyidagi Bosh boshqarmalar, boshqarmalar, bo’limlar mayjud edi: Qonunchilik, Fuqarolarga huquqiy yordam ko’rsatish, Jamoat birlashmalari, Xalq xo’jaligida huquqiy ishlar, Sudlar faoliyatini tashkiliy ta’minalash, Kadrlar, Huquqiy siyosatni muvofiqlashtirish, Xalqaro huquqiy aloqalar, Huquqiy targ’ibot, Huquqiy statistika, Markaziy buxgalteriya, Moliya-xo’jalik bo’limlaridan tashkil topgan edi [10].

O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining tarkibiy tuzilmasi turli normativ-huquqiy hujjatlar asosida bosqichma-bosqich kengayib rivojlanib bordi. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari asosida Adliya vazirligining turli bo’lim va boshqarmalari tashkil etildi. Xususan, Idoraviy me’yoriy hujjatlarni davlat ro’yxatidan o’tkazish bo’limi, Iqtisodiy islohot bo'yicha qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini tayyorlash va huquqiy ekspertiza qilish boshqarmasi, huquqiy axborot markazi, xalqaro huquqiy boshqarma, Tadbirkorlik va xususiy mulk egalari huquqlariga rioya etish bo'yicha qonunchilikning bajarilishini nazorat qilish boshqarmasi, Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni rivojlantirish boshqarmasi hamda Ma’muriy tartib-taomillarni takomillashtirish va monitoringini yuritish boshqarmalari va boshqalar tashkil etildi.

Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirishning dastlabki yillarda huquq tizimini isloh qilishga e’tibor qaratdi. Xususan, vazirlik yangi qonunlar, kodekslar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, jumladan Fuqarolik, Jinoyat hamda Fuqarolik protsessual kodekslarni ishlab chiqishda faol ishtiroy etdi. Mazkur huquqiy islohotlar mamlakatimizda adolatni ta’minalash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan

adolatli va shaffof huquqiy tizimni yaratishga qaratildi. Adliya vazirligining faoliyati qonunchilikdagi islohotlardan tashqari, advokatlik faoliyatini rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etdi. Vazirlik dastlabki yillarda sudyalar, advokatlar, notariuslar va boshqa huquqshunoslarning malakasini oshirishga qaratilgan hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralarning umummajburiy tusdagi normativ-huquqiy hujjatlarini huquqiy ekspertizadan o'tkazib, davlat ro'yxatiga olish ishlarini amalga oshirdi. Bunday normativ-huquqiy hujjatlarning Adliya vazirligi tomonidan davlat ro'yxatiga olinishi orqali ushbu hujjatlarga yuridik maqom beriladi, bu esa hukumat tomonidan maqullanganligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng Adliya vazirligining faoliyat doirasi bosqichma-bosqich kengayib takomillashib bormoqda. Xususan, norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, fuqarolarga yuridik xizmat ko'rsatish, inson huquq va erkinliklarini huquqiy himoya qilishda adliya organlarining nufuzi yildan yilga oshib, optimal tizimga aylanib bormoqda. Shu o'rinda Adliya vazirligining huquqiy maqomini belgilashda 1992, 2003, 2011, 2018-yillardagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi Nizomlari muhim rol o'ynadi. Mazkur Nizomlarda Adliya vazirligining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va faoliyatini tashkil etish hamda hisobot berish tartibi belgilandi.

Yuqorida sanab o'tilgan Adliya vazirligi to'g'risida Nizomlarga binoan vazirlikning faoliyati, tarkibi, vazifa va funksiyalari kengayib takomillashib bordi. Jumladan, 1992-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish masalalari to'g'risida"gi 523-sun Qarori qabul qilindi va Adliya vazirligining Nizomi tasdiqlandi. Mazkur Qarorda Adliya vazirligi huzurida qonunchilik muammolarini tadqiq qilish instituti va "Adolat" yuridik adabiyotlar nashriyoti tashkil etilishi, adliya muassasalari va sudlarni rivojlantirish Respublika jamg'armasini tashkil etish to'g'risida belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari Adliya vazirligiga umumiylajburiy xususiyatga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihibarini dastlabki ekspertizadan va keyinchalik davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etishi; davlat va xo'jalik idoralarining yuridik xizmatlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun Adliya vazirligi bilan har yili bitim tuzishni ta'minlashlari lozimligi qayd etilgan. Bundan tashqari, Adliya vazirligiga huquqiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga maxsus ruxsatnomalar (litsenziyalar) berish vazifasi ham yuklatildi [10].

Mazkur Qaror asosida tasdiqlangan Nizomda Adliya vazirligining huquqiy maqomi belgilangan bo'lib, unga ko'ra vazirlik ijroiya hokimiyatining respublika organi hisoblanishi, o'z faoliyatiga ko'ra bevosita O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga bo'ysunishi va maqomiga ko'ra Vazirlar Mahkamasini tarkibiga kirishi ko'rsatib o'tilgan. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, vazirlikning tarkibiy tuzilishi, faoliyati, vazifalari, funksiyalari va huquqlari ham mazkur Nizomda o'z ifodasini topdi. Xususan, Adliya vazirligi sudlarni tashkiliy jihatdan ta'minlashi, advokatura, notariat va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idoralari (FHDYO)ga umumiylajburiy amalga oshirishi, qonunchilik muammolarini tadqiq qilish, respublikaning qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlashda qatnashishi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining qarorlarini tartibga solishi, kodifikatsiya qilishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, vazirlikning kriminalogiya, kriminalistika va sud ekspertizasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini

tashkil etishi, sudyalarini intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini qo'yish va ularni ko'rib chiqish uchun respublika sudlari sudyalarining malaka hay'atlariga berishi nazarda tutilgan [10].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 27-avgustdagи "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 370-sон Qarori qabul qilindi va Adliya vazirligining yangi Nizomi tasdiqlandi. Mazkur Qarorda qonunchilik ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosati amalgaga oshirilishini ta'minlash Adliya vazirligining asosiy va eng muhim vazifasi bo'lishi lozimligi hamda insonning huquq va erkinliklarini huquqiy himoya qilish samaradorligini oshirish maqsadida vazirlik tizimida Inson huquqlarini himoya qilish boshqarmasini tashkil etish vazifasi belgilandi. Bundan tashqari, adliya organlari va muassasalarini mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqilligi hamda ular bevosita Adliya vazirligiga bo'ysunishi belgilangan. Nizomda Adliya vazirligi davlat boshqaruvi organi hisoblanib, Vazirlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Adliya vaziri boshchilik qilishi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, vazirlikning moddiy-texnik ta'minoti, tizim xodimlari mehnati uchun ish haqi to'lash masalalari ham ushbu Nizomda ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra vazirlik tizimining xodimlari mehnatiga maosh to'lash Adliya vazirligiga ajratiladigan mablag' doirasida davlat byudjeti, Sudlar, adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hamda qonun hujjatlarida taqilangan boshqa mablag'lar hisobidan amalgaga oshiriladi, deb ko'rsatilgan. Shuningdek, mazkur Nizomda vazirlikning maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari va javobgarliklari haqida ham normalar keltirilgan. Xususan, Adliya vazirligi qonun hujjatlarini kodekslashtirish bo'yicha ishlarni olib borishi, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarning davlat reestirini yuritishi, qonunchilikni tizimlashtirish, inson huquq va erkinliklariga rioya qilinishi monitoringi sohasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi bilan o'zaro hamkorlik qilishi, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning normativ-huquqiy hujjatlarni nashr etish, qonun hujjatlari ma'lumotlarining elektron bazasini yaratish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarini amalgaga oshirishi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, Adliya vazirligi huquqni qo'llash amaliyoti sohasida ham o'z vazifa va funksiyalariga ega hisoblanadi. Jumladan, vazirlik huquqni qo'llash amaliyoti masalalari bo'yicha davlat boshqaruvi organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, davlat organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bir xilda qo'llanilishini ta'minlash ishlarini tashkil etadi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bajarilishi monitoringini olib boradi [11].

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish, uning norma ijodkorligi faoliyati va huquqni qo'llash amaliyotida samaradorlikni oshirish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida uning rolini kuchaytirish maqsadida 2011-yil 23-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1602-sон Qarori qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yangi Nizomi tasdiqlandi. Ushbu Nizomga binoan, Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyatning alohida masalalari bo'yicha bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunishi belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, mazkur Nizom bilan

Adliya vazirligining maqsad va vazifalari, faoliyati, huquq va funksiyalari ham kengaytirildi, rivojlantirildi hamda takomillashtirildi. Xususan, Adliya vazirligining davlat organlari, jamoat tashkilotlarining huquqiy targ'ibot bo'yicha ishlarini samarali muvofiqlashtirish sohasida turli dasturlar va chora-tadbirlarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq tegishli rasmiy hujjatlarga apostil qo'yishi, davlat notarial idoralarini qat'iy hisobdagi gerbli (maxsus) blankalar bilan ta'minlashi, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi tarkibini tasdiqlashi, vazirlikning davlat organlarining huquqni qo'llash amaliyoti va norma ijodkorligi faoliyatida qonun hujjatlari talablariga, qonuniylikka rioya etishi ustidan nazorat qilishi nazarda tutildi [12]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 370-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Adliya vazirligining Nizomida Adliya vaziri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanishi va ozod qilinishi belgilangan bo'lsa, mazkur Nizomda Adliya vaziri O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tasdiqlanishi va lavozimdan ozod qilinishi belgilangan. Ushbu Qarorga asosan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatini samarali muvofiqlashtirish hamda ularning ushbu sohada fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini yanada takomillashtirishni ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlarni nazarda tutgan holda Huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilinishi ahvolini o'rganish bo'yicha idoralararo ishchi guruh tuzildi va ishchi guruhga O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri rahbarlik qilishi belgilandi [12]. Ushbu idoralararo ishchi guruhining asosiy vazifalari etib, inson huquqlari va erkinliklari sohasida aniqlangan qonun buzilishi holatlarini bartaraf qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilash to'g'risida takliflar kiritish, inson huquqlari va erkinliklari sohasida qonunchilikni takomillashtirish, BMTning asosiy Konvensiyalarini milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga implementatsiya qilish bo'yicha takliflar tayyorlash belgilandi. Bundan tashqari, mazkur Idoralararo ishchi guruhi tomonidan O'zbekiston Respublikasining tegishli davriy ma'ruzalarini ko'rib chiqish natijasi bo'yicha BMT konvention organlarining yakuniy tavsiyalari va e'tirozlarini ko'rib chiqish, shuningdek, ushbu yakuniy tavsiya va e'tirozlarning ijrosi bo'yicha Milliy harakat rejalarini tasdiqlash va monitoring olib borish vazifalari ham yuklatildi [13].

Adliya vazirligi tarixida 2018-yil 13-aprel sanasi tarixiy sana sifatida muhrlanib qoldi. Chunki shu kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3666-son Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi yangi Nizom tasdiqlandi va adliya organlari tamoman yangicha uslubda ishlay boshladи. Ushbu Nizomda Adliya vazirligining huquqiy maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibi belgilandi. Xususan, vazirlikning markaziy apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, hududiy adliya boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) adliya bo'limgari huquqni muhofaza qiluvchi organlar hisoblanadi, deb belgilab qo'yildi. Huquqiy targ'ibot kengaytirildi. Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari yuridik shaxs hisoblanishi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga, bank hisobvaraqlariga, shu jumladan, chet el

valyutasidagi bank hisob varaqlariga egaligi qayd etildi. Shu bilan birga, Tuman (shahar) adliya bo'limlari, yuridik xizmat ko'rsatish markazlari, davlat xizmatlari markazlari va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari (FHDY organlari) yuridik shaxs hisoblanmasligi, mol-mulkka, xo'jalik yurituvida yoki operativ boshqaruvda alohida mol-mulkka ega bo'lmasligi ko'rsatib o'tildi. Mazkur Qarorda Adliya vazirining huquqiy maqomi va faoliyatidagi o'zgarishlar o'z aksini topdi. Jumladan, Adliya vaziri bo'lishga nomzod O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ma'qullaganidan so'ng O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanishi va lavozimdan ozod etilishi belgilandi. Adliya vaziri har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga davlat organlari va tashkilotlarining huquq ijodkorligi faoliyati va huquqni qo'llash amaliyoti holati to'g'risida axborot kiritishi ko'rsatib o'tildi. Mazkur Qarorga ko'ra, muhim iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, qoida tariqasida, loyihani ishlab chiquvchi tashkilotlar tomonidan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga (regulation.gov.uz) jamoatchilik muhokamasi o'tkazilishi uchun joylashtirilishi lozim, deb belgilandi. Shu o'rinda aytish lozimki, ushbu Qaror bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risidagi Nizomda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha choralarни ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtiroy etish Adliya vazirligining ustuvor vazifalaridan biri sifatida mustahkam o'rin egalladi [6].

Davlat organlari faoliyatini huquqiy ta'minlash, aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini yaxshilash va yuridik xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish masalalari organlari tizimini yanada rivojlantirish zaruratinini taqazo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5415-sonli Farmonining qabul qilinishi bu boradagi muhim qadamalardan biri bo'ldi. Ushbu Farmonga asosan, O'zbekiston Respublikasi tarixida ilk bor "respublika – viloyat – tuman (shahar)" uch pog'onali prinsipi bo'yicha vertikal boshqaruvni joriy etgan holda tumanlar (shaharlar)da adliya bo'limlari tashkil etildi. Tuman adliya bo'limlarining asosiy vazifalari belgilab berildi. Xususan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tumanlar tuzilmalaridagi ijrochilarga yetkazish, "respublika – viloyat – tuman – mahalla" prinsipi bo'yicha huquqiy targ'ibot va aholining huquqiy savodsizligiga barham berish borasida, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari bilan birgalikda chora-tadbirlarni amalga oshirish, huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish, tahlil qilish, uning barqarorligi va bir xillagini ta'minlash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, fuqarolarning kundalik hayotida uchraydigan huquqiy muammolarni tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar ko'rish hamda qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish tuman (shahar) adliya bo'limlarining muhim vazifalari etib belgilandi. Shu bilan birga, Adliya vazirligi xalqaro arbitrajlar va sud ishlari masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini himoya qilish sohasida vakolatli davlat boshqaruvi organi etib belgilandi. Farmonga binoan, Adliya vaziri davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi faoliyati va huquqni qo'llash amaliyoti holati to'g'risida har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga axborot taqdim etishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi adliya vaziri, hududiy adliya

boshqarmalari boshliqlari har yarim yil yakuni bo'yicha tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga joylarda norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati bo'yicha axborot taqdim etishi, tuman (shahar) adliya bo'limlari boshliqlari har chorakda tegishlicha tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlariga tuman (shahar) darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati bo'yicha axborot taqdim etishi belgilandi [8].

Tarixiy tajribani o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, tumanlar (shaharlar)da adliya bo'limlarining mavjud emasligi adliya organlari va muassasalari faoliyatida huquqiy islohotlarning har tomonlama to'liq va yuqori samaradorlik darajasiga erishishiga to'sqinlik qilib, hal etilishi lozim bo'lgan qator tizimli muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida va sifatli hal etish imkonini bermagan. Bundan tashqari, adliya bo'limlarining quyi pog'onasi mavjud emasligi bevosita joylardagi huquqiy muammolar, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda ularning haqiqiy ehtiyojlari bilan bog'liq holda ta'minlanish darajasining chuqur o'rganilishiga, jamiyatdagi aniq huquqiy holatdan kelib chiqib manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish imkonini bermagan. Shuningdek, amalga oshirilayotgan islohotlar, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun va mohiyatini tushuntirish bo'yicha joylarda adliya organlarining ishi lozim darajada tashkillashtirilmagan edi. Buning natijasida esa aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyati, ayniqsa, qishloq joylarda qoniqarsiz darajada bo'lgan [14]. Adliya organlarining tuman (shahar) bo'limlarining tashkil etilishi orqali ushbu muammo va kamchiliklar o'z yechimini topdi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Manbalarda qayd etilishicha, "...adliya bo'limlari fuqarolarga huquqlarini tushuntirish bilan cheklanib qolmay, ularning buzilgan huquqlarini tiklashda ko'maklashmoqda. Aholining viloyat markaziga yuzlab chaqirim yo'l bosib ovora bo'lib borishlariga chek qo'yildi. Boisi avvallari adliyaning quyi tizimi viloyat adliya boshqarmalariga vaqt sarflab borishlariga to'g'ri kelardi. Endi bo'lsa tuman (shahar) adliya bo'limlari tashkil etilgani fuqarolarning muammolarini shu yerning o'zida bartaraft etishga imkon yaratdi" [15].

Bugungi kunda intellektual mulk sohasini boshqarish, uni nazorat qilish va uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash Adliya vazirligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Intellektual mulk sohasi bilan bog'liq faoliyat Adliya vazirligining yangi sohalaridan biri hisoblanadi. Intellektual mulk agentligi yaqin yillargacha Adliya vazirligi tizimiga kirmagan, mustaqil tashkilot bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yi 8-fevraldagagi "Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4168-sonli Qaroriga muvofiq, intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish va umume'tirof etilgan xalqaro normalarni implementatsiya qilishga oid faoliyati qoniqarsiz deb topilganligi sababli Intellektual mulk agentligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimiga o'tkazildi [16]. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-iyuldagagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4380-sonli Qaroriga asosan, Intellektual mulk agentligi intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza va himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruv organi bo'lib, agentlik faoliyatiga umumiy rahbarlik va uni nazorat qilish, moddiy-texnika

bazasini mustahkamlash hamda agentlik xodimlarini malakasini oshirishni tashkil etish Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi [17].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagи "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqiy xizmat ko'rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-89-sonli Farmoni bilan, Adliya vazirligida yagona boshqaruvni joriy qilish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy boshqarmalari hamda Intellektual mulk agentligi va uning hududiy markazlari bevosita Adliya vazirligiga qo'shib yuborildi. Bundan tashqari, yuridik xizmat ko'rsatish markazlari, tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlari va ularning filiallari hamda FHDY organlari barcha huquq va vakolatlarini saqlagan holda tuman (shahar) adliya bo'limlari tuzilmasiga va bo'ysunuviga o'tkazildi. Adliya vazirligi jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish hamda intellektual mulk sohalarida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi hamda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti va intellektual mulk sohasidagi boshqa xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasini ifodalovchi vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Shuningdek, Farmonda Adliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalariga o'zlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun qator qo'shimcha vakolatlar berildi. Xususan, davlat organlari va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda yuzaga kelgan mehnat nizosini ko'rish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilish, intellektual mulk sohasidagi huquqbazarliklar uchun yuridik shaxslarga jarima qo'llash hamda davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdar shaxslariga nisbatan ma'muriy jazo qo'llash kabi qo'shimcha vakolatlar vazirlik va uning hududiy bo'linmalariga berildi [18]. Bundan tashqari, huquqbazarliklar sodir etilganda Adliya vazirligi rahbariyati tomonidan chora ko'rish to'g'risidagi normalar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida ham o'z ifodasini topdi.

Xususan, 2024-yil 16-yanvardagi O'RQ-896-sonli qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 245<sup>2</sup>-moddasi o'zgartirilib, adliya organlari rahbarlariga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 215<sup>5</sup>-moddasida ko'rsatilgan huquqbazarlikni sodir etgan shaxslarga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri ma'muriy jazo qo'llash vakolati berildi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 215<sup>5</sup>-moddasiga ko'ra, agar davlat xizmatlari ko'rsatishda arz qiluvchining murojaatini qabul qilish rad etilsa, davlat xizmatlari ko'rsatish chog'ida murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va muddatlarini buzilsa, arz qiluvchidan qonunchilikda nazarda tutilmagan hujjatlarni talab qilib olinsa, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi vakolatlari davlat organining qonuniy talabini (topshirig'ini) bajarilmasa, o'sha davlat xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotning mansabdoriga va xodimlariga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha ma'muriy jarima qo'llaniladi. Agar xuddi shunday huquqbazarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil davomida yana takrorlansa, mansabdar shaxslarga va xizmatchilarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Endilikda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 245<sup>2</sup>-moddasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga asosan, davlat xizmatini ko'rsatishda yuqorida huquqbazarliklarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan Adliya vaziri va uning o'rinosarlari, vazirlikning Davlat xizmatlari departamenti boshlig'i, Qoraqalpog'iston Adliya vaziri va uning o'rinosarlari hamda viloyatlar va Toshkent

shahar adliya boshqarmalari boshliqlari va o'rinnbosarlari ma'muriy jarima qo'llashi mumkin [19], deb belgilandi.

Yuqoridagilarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, Adliya vazirligi mustaqillikning dastlabki yillaridan xalqimizga xizmat qilib kelayotgan davlat boshqaruv organlaridan biri hisoblanadi. Adliya vazirligi faoliyatining rivojlanishi bosqichma-bosqich takomillashmoqda. Vazirlik so'nggi yillarda davlat huquqiy siyosatini amalga oshirish, qonunchilik sohasi va huquqni qo'llashni ta'minlash, norma ijodkorligi, huquqiy ekspertizani amalga oshiruvchi organ sifatida nufuzi ortib bormoqda. Ayniqsa, davlat xizmatlari markazlalari aholining chinakam xizmatchisiga aylanib bormoqda. Davlat xizmatlari yurtimizning barcha hududlariga kirib borishi, aholining davlat xizmatlariga bo'lgan talabi samarali qondirilishiga erishish tendensiyasi amalga oshirilmoqda. Buning natijasida, fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinmoqda. Vazirlikning faoliyati orqali xalqning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak saviyaga ko'tarilmoqda.

Umuman olganda, Adliya vazirligining shakllanishi va rivojlanishi qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqiy normalarning bajarilishini nazorat qilish, huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish, davlat rahbarining qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash hamda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni ilgari surishda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Юридик атамалар қомусий луғати. /Масъул мұхаррир: Х.Р. Рахмонқұлов; Адабий мұхаррир: Б.А.Әшпұлатов // — Т.: «Шарқ», 2003. – 432 б.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati: - Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.
3. Madvaliyev A. [va boshqalar].Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati [Matn]: lug'at / A. Madvaliyev [va boshq.]. – Toshkent: "SAHHOF" nashriyoti, 2021. – 304 b.
4. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Ikkinchı nashr / Nashr uchun mas'ul R.A. Muhitdinov va boshq.; mas'ul muharrir N. Toychiyev. – T.: Adolat, 2011. – 704 b.
5. Барихин А. Б. Большая юридическая энциклопедия. М.: Книжный мир, 2010. – 960 с. //Серия «Профессиональные справочники и энциклопедии».
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3666-son Qarori.13.04.2018. // <https://lex.uz/docs/3681790>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5997-son Farmoni. 19.05.2020 // <https://lex.uz/docs/4820060>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5415-son Farmoni. 13.04.2018. // <https://lex.uz/docs/3681777>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-314-son Farmoni. 08.01.1992. // <https://lex.uz/docs/148097>
10. 1992-yilning 12-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish masalalari to'g'risida"gi 523-son Qarori. 12.11.1992. // <https://lex.uz/docs/534846>
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 370-son Qarori.27.08.2003. (Hujjat kuchini yo'qotgan 23.08.2011) // <https://lex.uz/docs/245919>

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1602-sen Qarori. 23.08.2011. (Hujjat kuchini yo'qotgan 14.04.2018) // <https://lex.uz/docs/1857300>
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishining holatini o'rGANISH bo'yicha Idoralararo ishchi guruhi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 227-sen qarori.23.07.2012. (Hujjat kuchini yo'qotgan 23.02.2019.) // <https://lex.uz/docs/2035825#2036174>
14. Рахмонов С. Ўзбекистонда туманлар (шаҳарлар) адлия бўлимлари фаолиятида инсон хукуқларини ҳимоя қилишнинг айрим масалалари //Общество и инновации. – 2020. – Т. 1. – №. 2/С. – С. 285-294.
15. Tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlari faoliyati qoniqarlimi? // 2018-yilning 8-sentabr kuni Adliya vazirligining tumanlar (shaharlar) adliya bo'limlari faoliyatiga bag'ishlangan majlisi // <https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/90072/>.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4168-sen Qarori. 08.02.2019. // <https://lex.uz/docs/4195426>
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4380-sen Qarori.01.07.2019. // <https://lex.uz/ru/docs/-4395007>
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqiy xizmat ko'rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-89-sen Farmoni. 17.03.2022. // <https://lex.uz/docs/-5914998>
19. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 22.09.1994. // <https://lex.uz/docs/97664>

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº S/7 (4) – 2024*

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсуллияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-

уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).